O'zbekistonda aholi tadbirkorligini oshirish masalalari va chora- tadbirlar bir qator qonun hujjatlarida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi ^[10, 11], "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi ^[10, 11], "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi ^[10, 11], "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ^[10, 11], "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari ^[10, 11], "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni ^[10, 11] bilan mustahkamlandi.

Fikrimizcha, iqtisodchi olimlarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan xulosalari, taklifi va tavsiyalarini respublikamiz amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini asoslab berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada banklar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar va mikrokreditlar alohida guruhlariga ajratilgani holda, iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tadqiqot jarayonida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish shakllari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan va moliyalashtirish manbalari va olinadigan daromadlarning real qiymatini milliy valyutaning devalvatsiyasi ta'sirida pasayishiga alohida e'tibor qaratilgan. Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat moliyaviy resurslaridan foydalanishni takomillashtirish tadqiqotini amalga oshirishda asosan tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, statistik guruhlash, va taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAXLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil avgust oyida mamlakatimiz tadbirkorlari bilan "Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – ustuvor vazifamizdir" formatida o'tkazgan ochiq muloqotida so'zlagan nutqlarida "Erishayotgan yutuqlarimizga erishishda katta hissa qo'shib kelayotgan, yangi g'oyalar tashabbuskori bo'lgan kichik tadbirkorlarimiz, iqtisodiyotimiz lokomotiviga aylangan o'rta biznes vakillari, minglab ish o'rinlari yaratib, odamlarimizni daromadli qilayotgan yirik korxonalar rahbarlari, bozorlarimizga baraka olib kirayotgan klaster, fermer va dehqonlarimiz" – ekanligi alohida qayd etib o'tilgan.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-150-sonli Farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmonga muvofiq, quyidagilar tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatining kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi asosiy yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi:

- tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali joylarda tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish;
- eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali respublikada eksport hajmini oshirishga ko'maklashish;
- tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradigan davlat, tarmoq va hududiy dasturlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish;



- mamlakatda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish, jumladan hududlarda iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim drayver sohalarni rivojlantirish borasida moliyaviy ko'maklashish;
- tijorat banklarining kreditlari orqali ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori samara beruvchi yo'nalishlar, jumladan axborot tizimlari va dasturlarini yaratish loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni eski usuldagi qog'oz to'ldirish yo'li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda. Sanoatning yengil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida ishchilarning eng ko'p soni ilgari 100 kishidan 200 kishigacha oshirilgani tadbirkorlikni rag'batlantirish borasidagi chora- tadbirlar tizimidagi muhim qaror bo'ldi.

Ayni vaqtda, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, uning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish ular faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, dunyo iqtisodchi olimlari tomonidan turli davrlarda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan.

Qayd etilishicha, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash uchun 2021-yilning birinchi choragida qariyb 93 mingta loyihaga jami 12,2 trillion so'm kredit mablag'lari yo'naltirilgan. Shu bilan birga, xorijiy kredit liniyalari hisobidan tijorat banklari tadbirkorlik subyektlarining qariyb 3 700 ta loyihasini moliyalashtirish uchun 500 million AQSh dollari ekvivalentida kredit ajratilgan.

Ayni damda, O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini shakllantirilganligini ta'kidlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Mazkur tizim tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish jarayonini davlat tomonidan qo'llab- quvvatlashni, tadbirkorlik subyektlari eksportini qo'llab-quvvatlash tuzilmasini hamda banklar va nobank kredit tashkilotlari tomonidan mazkur subyektlar faoliyatini kreditlash amaliyotini o'z ichiga oladi.

Xususan, tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish jarayonini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari muhim o'rin tutmoqda. Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish uchun undiriladigan davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi, ishchilarning o'rtacha yillik soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi, yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi, 2023-yilning 1-yanvardan boshlab Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'arma tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan, qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan kredit (lizing)lari bo'yicha, 1–3 toifadagi tuman (shahar)larda joylashgan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalar bo'yicha foiz stavkasining asosiy stavkadan oshgan, biroq Markaziy bank asosiy stavkasining 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini, 4-5 toifadagi tuman (shahar)larda joylashgan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalar bo'yicha foiz stavkasining asosiy stavkadan oshgan, biroq Markaziy bank asosiy stavkasining 40 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etish tartibi joriy etildi¹.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki huzurida "Tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash" jamg'armasini tashkil etilganligi va uning faoliyatini davlat tomonidan rivojlantirish chora- tadbirlarini amalga oshirilayotganligi tadbirkorlik subyektlarining eksportini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrda Jamg'arma tomonidan tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarni o'rganish, chet ellik hamkorlarni topish, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlarni olish va bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilmoqda.

Aytish joizki, 2021-yildan bugungi kunga qadar sohada yangi loyihalarni tashkil etish, faoliyatini kengaytirish hamda ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida "O'zmilliybank" AJ tijorat banklari bilan birgalikda 28 mingdan ziyod tadbirkorlar uchun 50,4 trln.so'm, shundan joriy yilning 8 oyida 6,4 mingta tadbirkorlarga esa 13,3 trln.so'mlik kredit mablag'larni yo'naltirildi.

Buning natijasida, 2023-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra, 28,4 mingta yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilib, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 76 mingtaga yetdi.

Birgina, Toshkent shahrida 2023-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali jumladan, yangi tadbirkorlarni joriy qilish, loyihalarni to'liq ishga tushirilishi, mavjud tadbirkorlar faoliyatini yanada kengaytirish, korxonalar faolitini rasmiy sektorga o'tkazilishini ta'minlash hamda soha yo'nalishlarida fuqarolarni o'zini o'zi band qilish orqali jami 445 mingta ish o'rinlarini yaratilishi ko'zda tutilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-150-sonli Farmoni



Shu munosabat bilan, o'tgan 8 oy davomida yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida xizmatlar sohasida 290 mingta ish o'rinlarini yaratilganligi ijobiy natijalardan biridir.

Shuningdek, 2022-yil yakuni bilan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar xajmi 47 mln. so'mni tashkil etgan, ushbu ko'rsatkich joriy yil yakuni bilan 57 mln. so'mga yetkazilib, 2020-yilga nisbatan 3 barobarga ko'payishi prognoz qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan vazifa va topshiriqlarning ijrosini mas'ullar tomonidan o'z vaqtida samarali bajarilishi orqali maqsadli parametr ko'rsatkichlariga erishish natijasida aholi bandligini ta'minlash bilan bir qatorda, yangi xizmat turlarini joriy qilish, shuningdek aholi jon boshiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini hamda tadbirkorlik subyektlarining sonini oshishiga sabab bo'lmoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, mamlakat tijorat banklarining kreditlari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirish tizimida muhim o'rin tutmoqda. Banklarning qisqa muddatli kreditlari tadbirkorlik subyektlarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa, ularning uzoq muddatli kreditlari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi.

Ayni damda, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish siyosati davom ettirilayotgan hozirgi sharoitda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarning mavjudligi kuzatilmoqda. Ana shunday muammolardan biri – bu milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi sababli, tadbirkorlik subyektlarining importni to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning oshib borayotganligidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining. 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida belgilangan vazifalarni ijro etish, jumladan, 2022-yildan boshlab bosqichma-bosqich tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablarni yagona elektron reestrga kiritish tartibi joriy etish amaliyoti joriy etildi. Bundan tashqari, Davlat boshqaruvi organlarining "Davlat – inson uchun" tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo'nalishlarni rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish maqsadida:

- mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari tomonidan doimiy ravishda mahallani o'rganish va tahlil qilish natijasiga ko'ra ularni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish, mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish amaliyoti joriy etiladi [2].

Fikrimizcha, iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirishni tashkil etishning ilmiy asosi va mexanizmini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zarurdir. Mazkur mexanizm tadbirkorlik subyektlarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini ular ishlab chiqarish dasturida belgilangan muddat va miqdordagi pul mablag'lari bilan ta'minlashning muhim quroli sifatida ko'rib o'tilishi kerak. Bunda mulk shaklidan qat'i nazar barcha korxonalarga moliyalashtirishni tashkil etishda teng huquqlar berilishi lozim. Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda kapital qo'yilmalardan tashqari aylanma kapitalning zaxiralar va qayta sotish uchun olingan tovarlar kabi unsurlardan moliyalashtirishning no'anaviy manbalarini foydalanish mumkinligini hisobga olib, quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish, maqsadga muvofiqdir: taqsimlanmagan foyda; amortizatsiya ajratmalari va ichki xo'jalik zaxiralari; bank tizimning va kredit mablag'lari ixtisoslashtirilgan bankka oid bo'lmagan kredit-moliya institutlari; davlat tomonidan markazlashtiriluvchi, investitsiya maqsadlari asosida ajratiladigan mablag'lar; xalqaro tashkilotlar va chet el investorlaridan kredit va zayomlar ko'rinishida olingan mablag'lar; qimmatli qog'ozlar emissiyasidan olingan mablag'lar.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish manbalarini quyidagicha aks ettirish mumkin; tadbirkorlik subyektlarini samarali moliyalashtirish obyektlari bo'yicha manbalari:

- a) kapital qo'yilmalarga;
- b) ishlab chiqarish zaxiralariga bo'lgan ehtiyojni qoplash maqsadlariga yo'naltirilgan turlarga bo'linadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga katta imkoniyatlar berib, rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlardan biri Yaponiya davlatidir. Yaponiyada tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim elementi bo'lib Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tajribasini o'rganish uchun qiziqish uyg'otadi. Butun Yaponiya tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish infratuzilmasi Yaponiya hukumatining global tadbirkorlik strategiyasini amalga oshiradigan xo'jalik subyektlari Davlat agentligi tomonidan boshqariladi. Ushbu tuzilma bir qator yirik xususiy va jamoat tashkilotlari, tadqiqot markazlari bilan faol hamkorlik qiladi, ular orasida Yaponiyada innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish tashkiloti (SMEA) asosiy rol o'ynaydi.

SMEA tarkibiga to'rtta texnopark, biznes-inkubator, to'qqizta texnologiyani takomillashtirish instituti va tadbirkorlikni boshqarish kiradi.



Yaponiya hukumati tadbirkorlikdan rivojlanish va o'sish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratadi. Yaponiya "J-Net21" tizimidan keng foydalanadi, bu tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi va holatini doimiy monitoringini ta'minlaydi. Tizim ma'lumotlari asosida tadqiqotlar olib boriladi, davlatning ta'sir va tartibga solish choralarining butun majmuasining samaradorligi tahlil qilinadi va baholanadi [5].

Yaponiyada, 3,82 mln.ta korxona faoliyat yuritadi, shundan 3,8 mln.tasi yoki 99,7 foizi kichik va o'rta korxonalardir. Ularda 33,6 mln. kishi mehnat qiladi, bu ish bilan band jami aholining 70 foizi deganidir. Yaponiyada, 300 dan ortiq ishchi va 100 million iena aylanmasiga ega kompaniyalar tadbirkorlik sifatida qaraladi. Yaponiyada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi juda ilg'or bo'lib, uni qo'llab-quvvatlash uchun yiliga 200 milliard ienaga yaqin mablag'lar ajratiladi.

Tadbirkorlarni risksiz yoki risk darajasi past bo'lgan moliyalashtirish manbalariga taqsimlanmagan foyda, amortizatsiya ajratmalari, tizim ichidagi maqsadli moliyalashtirish, yuqori tashkilotlardan aniq maqsad uchun ajratgan mablag'larlari kiritiladi.

Jalb qilish usuli bo'yicha tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning barcha manbalarini tashqi va ichki turlarga bo'lish mumkin. Ichki manbalarga xo'jalik yurituvchi subyekt doirasida jalb qilish mumkin bo'lgan manbalar kiradi, tarkibiga korxona foydasi, qarz manbalaridan olingan mablag'lar kiradi. Bunday mablag'larni jalb qilish korxona moliyaviy riskini oshiradi, chunki ularni jalb qilish qarzni kelishilgan muddatda, foydalanganligi uchun ma'lum foizini to'lagan holda, albatta qaytarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdir.

"Tadbirkorlik subyektlarning rivojlantirish ularni zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish darajasiga tayanilishiga erishish lozim. Buning uchun ularni rivojlantirishning yangi manbalarini, ham chet el investitsiyalarini keng jalb qilish hisobiga, ham ichki manbalar, bank kreditlari hisobiga doimo kashf etib borilishi darkor" asosiy maqsad, nafaqat, tadbirkorlik subyektlarini o'sishini ta'minlash, balki ularning faoliyat samaradorligini oshirishdan iboratdir [10]. Mazkur jarayonlarda ularni imtiyozli asoslarda kreditlash eng asosiy bo'g'in bo'lib maydonga chiqadi. Bunda tadbirkorlik subyektlarini kreditlash markazida tijorat banklarining ular bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlari o'rin egallaydi. Mazkur munosabatlarning uzoq muddatli jarayonlar negiziga asoslanishi tadbirkorlik investitsiya loyihalarini kreditlash tizimi shakllanishiga imkon beradi.

Tadbirkorlik subyektlarini bevosita moliyalashtirishning shakllaridan biri faktoring hisoblanadi.

Faktoring - xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan korxonalarning debitorlik qarzlarni diskont stavka bilan nominal qiymatdan past narxlarda sotib olish operatsiyasi hisoblanadi. Shuning bilan birga, faktoring deganda, korxonalarning moliyaviy mablag'larni jalb etish maqsadida o'z debitorlik qarzdarligini uchinchi tomonga sotishi ham tushuniladi. Tovarlar va xizmatlarni sotishdan to'lovlarning kelib tushishida kechikishlar yuzaga keladigan kichik korxonalarda ko'p hollarda pul tushumi va kassa naqd pul mablag'lari aylanmasida ma'lum oraliqda taqchilliklar yuzaga keladi. Taqchillikning sabablaridan biri shuki, tovar va xizmatlarni sotishdan tushum korxona hisob raqamiga kelib tushgani yo'q, ammo korxonada ishlab chiqarishni yangi mavsumga rejalashtirish va tayyorlash uchun esa xom-ashyo va materiallar sotib olish zarurati yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi muammolarni o'rgangan holda biz muammoni hal qilishning amaliyotda bir necha yo'llarini talqin etamiz: mahsulot va xizmatlar savdosidan tushumning kelib tushishini nazorat etish va ta'minlash, oborot aktivlarini to'ldirish maqsadida kreditlarni jalb etish mumkin. Mahsulot va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda turli kechikishlarga yo'l qo'yish yoki to'lovlarning uzoq vaqt davomida amalga oshirilmaligi korxona hisob raqamida pul mablag'lar taqchilligi riskini keltirib chiqarishi mumkinligini inobatga olib, hozirgi kunda turli xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan faktoring operatsiyasidan foydalanishga o'tilmoqda. Bu operatsiya xo'jalik subyektlarining xaridorlar uchun takliflarini qiziqarli va e'tiborli qiladi va ularni o'ziga jalb etadi. Shuningdek, faktoring kichik korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga olib keladi.

Tijorat banklari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini mikromoliyalashda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash doir me'yoriy hujjatlarga asosan, shuningdek, har bir xorijiy kredit yo'nalishining kredit ajratish bo'yicha ishlab chiqarilgan tartiblari bo'yicha moliyalashtiradi.

Ammo amalga oshirilgan qator chora-tadbirlarga qaramasdan, bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini mikromoliyalashda bir qator muammolar mavjud.

O'zbekistonda tadbirkorlik va xususiy tabirkorlik YalMda yuqori ulushga ega bo'lishi bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqoslaganda kredit portfelida 7,9 foiz ulushga ega bo'lib, tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishda ortda qolmoqda.

Ilg'or xorij tajribasida tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida maxsus so'rovnomalar o'tkazilishi va uning natijasida aniqlangan kamchiliklar asosida kelgusi kreditlash jarayonini tashkil etishni O'zbekiston amaliyotida qo'llash yetarlicha samara berishi ma'lum bo'ldi.



O'zbekiston amaliyotida tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasida tadbirkorlik subyektlariga kreditlar berish yuzasidan "kafolat berish dasturini" yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning innovatsion yangi usullarini joriy etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyalashtirish;
- tadbirkorlik subyektlarini mintaqalar kesimida moliyalashtirish;
- tadbirkorlik subyektlarini xorijiy kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish;
- mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalarga moliyalashtirishni tashkil etishda teng huquqlar berilishi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-150-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil avgust oyida mamlakatimiz tadbirkorlari bilan "Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – ustuvor vazifamizdir" formatida o'tkazgan ochiq muloqotida so'zlagan nutq
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni, 2017-yil 7-fevral.
4. Родина Т.Е. Региональные аспекты развития малого и среднего бизнеса. Никоновские чтения. 2019 г. – Брянский ГИТУ.- ст. 286-287.
5. Allen F., Gale D. Comparing Financial Systems. – Cambridge, Mass: MIT Press, 2000. – P. 42.
6. Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишерз, 2010. – 307 с.
7. Boymuratov A.D. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini banklar tomonidan kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari. i.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008.-16b.
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2011. - №34-35 (482-483). - 5-7-b.
9. O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy bankining yillik hisobotlari ma'lumotlari.
10. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-fevraldagi PQ-2768-sonli "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – № 7 (767). – 85-modda.
12. <http://www.stat.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

